



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

INGLIZ ADABIYOTIDA ODA VA GIMN JANRI UYG'UNLIGI

Alimova Dilrabo Bahodirovna

Toshkentdagi Xalqaro Vestminster Universiteti o'qituvchisi
dilrabo.alimova90@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz she'riyatida shakllangan oda va gimn janrlarining o'ziga xos xususiyatlariga doir mulohazalar bildirilgan. Tahlil jarayonida Isaac Watts va Charles Wesley kabi ijodkorlarning asarlariga murojaat qilinib, oda va gimn janrlariga xos janriy belgilar, ularning shakl va mazmun jihatdan o'zaro o'xshash va farqli jihatlari ilmiy tahlil etilgan. Muallif oda va gimn janrlarida falsafiy ruhning ustivor ekanligini tahlil etib, mazkur janrlarning ingliz adabiyotidagi o'rni masalasiga munosabat bildiradi.

Kalit so'zlar: Oda, gimn, ilohiy ideallashtirish, bag'ishlov.

Ingliz adabiyotida oda janri o'zining an'anaviy klassik xususiyatlarini saqlab qolgan holda, vaqt o'tishi bilan boshqa she'riy janrlar bilan aloqadorlikka kirishib, shakl va mazmun jihatidan boyib bordi. Ayniqsa, romantizm davrida oda elementlariga gimn, elegiya, idilliya elementlari qo'shildi.

Ingliz she'riyatida gimn (hymn) rus adabiyotida bo'lgani singari diniy va milliy mazmundagi madhiya sifatida oda janriga eng yaqin janr hisoblanadi. Unda diniy mavzular, vatan va milliy qadriyatlar madh etilgan. Oda janridagi kabi gimnda ham tantanavor intonasiya, baland ruh va ideallashtirish ruhi ustuvor sanalgan.

Ingliz adabiyotida XVIII asrdan boshlab shakllangan diniy she'riyatda oda janrining ta'siri sezilarli darajada kuzatiladi. Buni **Isaac Watts** va **Charles Wesley** kabi shoirlar ijodi misolida kuzatish mumkin. Ularning asarlarida oda janrining barcha elementlari ko'zga tashlanadi. Isaac Watts cherkov uchun ko'plab mashhur gimnlar va diniy qo'shiqlar yozgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni "gimnlar otasi" atashgan. U gimn janri orqali inson va Xudo o'rtasidagi ruhiy aloqalarni tarannum etgan. Wattsning **"When I Survey the Wondrous Cross"** [3] asarida Iso Masih qurbonligi ilohiy pafosda, odaviy ruhda tarannum etiladi. Mazkur gimnida Masihning aybsiz qurbonligi nafaqat tarixiy fojea, balki ilohiy muhabbat va inson uchun najot timsoli sifatida tarannum etilgan. She'rdagi har bir obraz, har bir satr ibodat va tafakkur ruhi bilan to'lib-toshgan. Unda madh, tavba va ruhiy poklanish oda janriga xos baland pafos bilan uyg'unlashtiriladi.

Charles Wesley'ning "Hark! The Herald Angels Sing" [1] asari diniy mazmun, odaviy tantana va poetik baland pafosni o'zida mujassam etgan muhim namuna sifatida alohida e'tiborga molikdir. She'rning markaziy g'oyasi – Iso Masihning tug'ilishi orqali insoniyat uchun najot va Xudoning rahmatiga yo'l ochilishi g'oyasidir. Farishtalar, osmon bilan yer o'rtasidagi yaqinlashuv, muqaddas nurning zaminga tushishi – bularning barchasi an'anaviy oda janriga xos baland ruh, metaforik tassavur va ilohiy kuchni olqishlash xususiyatlarini yorqin namoyon etadi.

John Milton'ning "On the Morning of Christ's Nativity" asari tuzilishi jihatidan oda va gimn janrlarining uyg'unligiga asoslangan. Uning kompozitsion tuzilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Asarning birinchi qismi – muqaddimaviy bandlar

(I- IV) shaklan va mazmunan klassik oda janriga yaqin. Bu qismida Jon Milton Iso Masihning tug'ilishini tantanavor va baland poetik bayon orqali madh etadi. Shoir keng metaforalar va simvollardan foydalangan holda, olamning tuzilishi, osmon, yulduzlar, oy,

quyosh kabi tabiat unsurlari hamda ularga doir ilohiy hikmat sirlarini badiiy talqin qiladi. Oda janriga xos ravishda mazkur bobda simvollar va falsafiy ifodalar ustuvorlik kasb etadi.

This is the month, and this the happy morn,
Wherein the Son of Heaven's eternal King,
Of wedded Maid and Virgin Mother born,
Our great redemption from above did bring;
For so the holy sages once did sing,
That he our deadly forfeit should release,
And with his Father work us to peace[2].

Asarning birinchi qismi shaklan klassik oda janriga xos. Dastlabki bandda Milton Iso Maseh tug'ilishini tantanavor va muqaddas voqea sifatida bayon etadi. Muallif "This is the month, and this the happy morn" satrlari orqali Iso Masehning tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan muqaddas kunni madh etadi. Iso Masih tug'ilgan vaqt – Rojdestvo kechasi (24 dekabrda 25 dekabrda o'tar kecha) sanaladi. Muallif "Oy" va "tong" so'zlari ramz sifatida ishlatilgan bo'lib, butun insoniyat uchun yangi bir zamon boshlangani, najot vaqti kirib kelganiga ishora qiladi.

Shoir Iso Masihning tug'ilishini – najot timsoli sifatida, Maryamning bokiraligini mo'jiza sifatida, gunohkor insoniyatning kechirilishi – insonparvarlik va rahmat ramzi sifatida vash etadi.

That glorious Form, that Light unsufferable,
And that far-beaming blaze of Majesty,
Wherewith he wont at Heav'ns high Council-Table,
To sit the midst of Trinal Unity,
He laid aside; and here with us to be,
Forsook the Courts of everlasting Day,
And chose with us a darksome House of mortal Clay.

Ikkinchi bandda Masihning osmoniy shon-sharafni tark etib, insonlar orasida yashashni tanlashi tasvirlangan. "Ko'z qamashtiruvchi nur" – Iso Masihning gunohsizligi va muqaddasligining poetik ifodasidir. Masihning yer yuziga tushirilishi uning butun insoniyat uchun najot manbai sifatidagi oliy maqsadini ham belgilab beradi.

Matndagi "zulmat uyi" dunyo hayotining murakkab tabiatini anglatadi. Shu bilan birga, "foniy loy" ifodasi orqali insonning zaifligi va bu dunyodagi hayoti vaqtinchalik ekanligi ta'kidlangan. Iso Masih aynan shu dunyoga tushib, odamlar bilan birga yashash orqali ularga rahmat, kechirim va abadiy hayot umidini olib keladi.

She'rning uchinchi bandida shoir ilohiy ilhom manbai – **"Samoviy Musa"**, ya'ni osmondan yuborilgan muqaddas homiyga murojaat qiladi. Undan Iso Masihni, Xudoning yangi tug'ilgan O'g'lini munosib madh bilan qarshi olish uchun so'z, she'r yoki musiqa uchun ilhom so'raydi.

Say Heav'nly Muse, shall not thy sacred vein
Afford a present to the Infant God?
Hast thou no vers, no hymn, or solemn strain,
To welcom him to this his new abode,
Now while the Heav'n by the Suns team untrod,
Hath took no print of the approaching light,
And all the spangled host keep watch in squadrons bright?

Milton "Muqaddas Musa" timsoli orqali inson so'zi ilohiy voqelikni to'la qamrab olishga imkonsizligini, biroq shu bilan birga, so'z orqali Xudoni madh qilish va ilohiy haqiqatni ifoda etish imkoniyati mavjudligiga ishora qiladi. Bu holatni ijodkor o'z she'riy salohiyatini ilohiy maqsadlarga safarbar etishga urinishi sifatida baholash mumkin.

Asarning ikkinchi qismi esa **"The Hymn"** deb nomlanib, bu qism o'zining diniy, ibodatga xos ruhi va madhiy ohangi bilan gimn janrining asosiy belgilarini namoyon etadi.

Unda Iso tug'ilganda tabiatning holati, samoviy kuylar, farishtalar sozandiligi hamda ilohiy nur va ma'naviy poklanish mavzulari badiiy talqin etilgan.

Jon Miltonning mashhur "On the Morning of Christ's Nativity" (Masih tug'ilgan sahar) asarning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda klassik oda janri elementlari bilan gimni xususiyatlarining mukammal uyg'unlashuvi ko'zga tashlanadi. Asardagi yuksak pafos va tantanavor ruh, madhiy mazmun va ideallashtirish, muallifning shaxsiy ehtirolari bu asarni an'anaviy oda poetikasi bilan bog'lab turadi.

Ko'rinib turibdiki, oda va gimn madhiy xarakteri bilan ajralib turuvchi qadimiy janrlar sirasiga mansub bo'lib, ular an'anaviy poetik janrlar ichida tantanaviy ruh, yuksak uslub va ilohiy yoki ideallashtirilgan mavzuga murojaat etishi bilan umumiylikka ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dr. Ralph F. Wilson. Hark, the Herald Angels Sing. <https://www.joyfulheart.com/christmas/hark-herald-angels-sing.htm>
2. John Milton. On the Morning of Christ's Nativity. <https://poets.org/poem/morning-christs-nativity>
3. Richmond Hamburg, Tunbridge Rockingham Yucharis. When I survey the wondrous cross. <https://www.hymnologyarchive.com/when-i-survey>